

GEOGRAFIYA DARSLARIDA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALLANISH

Namangan viloyati Namangan tumani

19-o'rta ta'lim maktabining Geografiya fani o'qituvchisi

Xolmatova Yoqutxon Abdullajonova

Annotatsiya: Maqolada o'quvchi shaxsini hurmat qilish, unda mustaqil fikrlash va mustaqil ishlash imkoniyatlari hamda jarayonlarini yaratish, geografiya fanining o'qitilishida boshqotirmalar, amaliy mashg'ulotlardan, turli usul va uslublardan foydalanish yo'llarini ochib beriladi.

Kalit so'zlar: innovatsiya, ta'lim, pedagogik mahorat, zamon talabi, amaliy mashg'ulot.

Zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanib videodarslar tayyorlash imkoniyatlari mavjud. Bunday darslarda turli animatsiyalardan foydalanilsa, darslar yanada qiziqarli bo'ladi. Uyida kompyuter yoki notebook bo'lmagan o'qituvchilari ham bemalol mobil telefonlar orqali turli dastur hamda ilovalar yordamida bunday darslarni tayyorlay oladilar. Izlagan imkon topadi. Internet brauzerlari orqali "Inshot", "Filmix", "Du Recorder" kabi programmalarga qidiruv berib yuklab olish mumkin. Bu dasturlar orqali o'qituvchilar o'z ijodiy mahoratlarini sinab ko'rishlari va amalga oshirishlari mumkin. Bunday darslar, ayniqsa, masofaviy darslarda qo'llanilsa, maqsadga muvofiq bo'ladi.

Bundan tashqari geografiya darslarida "Google Earth", "Google Maps" programmalari oraqli o'quvchilarga darslarni yanada tushunarliroq qilib, har bir o'tilgan mavzudagi joylarga onlayn sayohat qilib yaxshiroq tushintirish mumkin.

Masalan, Farg'ona, Namangan, Andijon vodiylari o'tilsa programmalar orqali o'zimiz turgan joy, hattoki uyimizgacha ko'rish imkoniyati mavjud bo'ladi va bu o'quvchilar uchun juda ham qiziq.

Yoki “Sayyoralar” mavzusi o’tilsa “Solar System” programmasi oraqli har bir sayyoraqa sayohat qilib, uning qanday shakldaligini, tuzilishini ko’rish imkoniyati bo’ladi, bu esa o’quvchilar uchun juda qiziq bo’ladi va maruza qilib bergandan ko’ra ancha samarali bo’ladi.

O’qituvchilar har bir yangi mavzuni o’tganida topshiriqlarning mazmunan xilma-xil va qiziqarli bo’lishiga e’tibor qaratishi lozim. O’quvchilarga yangilik berish bilan birga, ularning psixofiziologik imkoniyatlarini hisobga olish, ularning fikrlash qobiliyatlarini va ijodiy tashabbusini rivojlantira olish kerak. Xitoyliklarning bir maqolida “Bolangga baliq tutib bersang, bugun qorni to’q, baliq tutishni o’gatsang ertaga qorni to’q. Baliq tutish bilan birga qarmoq yasashni ham o’rgatsang har doim qorni to’q”, deyiladi. Darhaqiqat, o’quvchilarimizni mustaqil, erkin fikrlay oladigan, jahon ilm-fani darajasida o’z o’rniga ega bo’ladigan, raqobatbardosh kadrlar qilib tarbiyalash zimmamizdagi eng mas’uliyatli va sharaflil vazifa. Yaratilayotgan imkoniyatlardan to’laqonli foydalanib o’z kasbiga vijdonan yondashadigan o’qituvchilarimizdan nafaqat ochiq darslarda yoki fan oyliklarida, balki oddiy darslarda ham nutqiy savodxonlikka e’tibor qaratishlari, shiddat bilan rivojlanayotgan zamon bilan hamnafas bo’lishlari talab etiladi. Shundagina biz ko’zlagan manzilimizga, oldimizga qo’ygan maqsadimizga erishamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. J.G’rta ta’lim maktabi.Yo’rta ta’lim maktabildoshev, S.A.Usmonov. Pedagogik texnologiya asoslari. T:“O’rta ta’lim maktabiqituvchi”. 2004
2. M.T.Mirakmalov, M.M.Avezov, E.Y.Nazaraliyeva. Tabiiy geografiyadan amaliy mashg’rta ta’lim maktabiulotlar. T: “Fan va texnologiya” nashriyoti. 2015